

## **MURIEL SPARKNING YUPATUVCHILAR (COMFORTERS) ROMANIDA AYOL ICHKI DUNYOSINING TASVIRI**

*M.Z.Djalaldinova*

*Andijon davlat chet tili instituti, 2-bosqich doktoranti (PhD)*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada Muriel Sparkning ilk romanidagi ayollar ichki dunyosining tasviri tahlil qilinadi. Muallif asarlarida ayol qahramonlarining ruhiy holati, hissiy kurashlari va psixologik muammolarini ochib beradi hamda ayollar obrazlarini yaratishda turli falsafiy-psixologik, ramziy-majoziy usullardan foydalanadi. Ayol qahramonlar o'zlarini anglash, mustaqillikka erishish yo'lida jamiyatning kliché va stereotiplariga qarshi kurashadi. Maqolada Sparkning badiiy uslubi, dialoglardan, ishonchsiz hikoyachilardan foydalanishi, shuningdek, tanqidiy realizm elementlari ko'rib chiqiladi.

**Kalit so'zlar va iboralar.** Ayol ichki dunyosi, ruhiy holat, hissiy kurashlar, o'zlikni anglash, mustaqillik, stereotiplar, badiiy uslub, tanqidiy realizm

Badiiy adabiyotda ayolning ruhiy olamini to'laqonli aks ettirishda jahon nasrining ilg'or ijodiy tendensiyalariga xos jihatlar namoyon bo'lmoqda. Adabiy jarayonda ayolning ijtimoiy hayotda tutgan o'rni, uning sohir tuyg'ulari, murakkab ruhiy olamini tasvirlashda falsafiy-psixologik, ramziy-majoziy obrazlilik ustunlik qilmoqda. Bunda eng muhim vazifa muayyan xilqat ruhiyati, tasvir va ifodaning yangicha talqini bilan bog'liq [1]. Myuriel Spark ijodida ayol timsolining shakllanishi nozik shu bilan birga murakkab jarayonlardan biridir. Ular murakkab, ko'p qatlamli, turli xil ijtimoiy, madaniy va psixologik jihatlar bilan boyitilgan.

Hindistonlik tadqiqotchi Dr. Ganesh Muriel Spark obrazlarni yaratishdagi mahoratini quyidagicha tasvirlaydi: *“Uning qahramonlari insoniyatning murakkabligi, to'liqligi va xilma-xilligini aks ettiradi. U yosh o'tish asnosida qarilik, ikkilanish zamirida turmush*

*qura olmaslik, rashk, azob-uqubatlar va boshqalarni butun insoniyatga tegishli bo'lgan xususiyatlar deya tasvirlaydi*”[2].

Spark asarlaridagi ayol qahramonlar ko‘pincha shaxsiyatini anglashga harakat qiladi shu bois o‘z o‘zini anglash jarayonini boshdan kechiradi. Orzu-havaslar, intilishlarini amalga oshirish uchun dadil qadam tashlaydi. Hayotida sodir bo‘lgan ziddiyatlar, kurashlar orqali o‘zligini topadi. Voqea hodisalar barobarida turli xil ijtimoiy bosimlar, madaniy klichélar bilan to‘qnashadi, ularga qarshi kurashadi. Ular o‘z hayotini boshqarish, qarorlar qabul qilish, taqdirini belgilashni o‘z zimmasiga oladi. Bu mustaqillik, o‘zlikni anglash jarayoni ayol qahramonlarini kuchli va qat’iyatli qilib ko‘rsatadi. Dr Ganesh o‘z fikrini davom ettirib shunday deydi: *“U mahorat ila bir kishining ikkinchisi ustidan hasadi kelishini, keyinroq boshqa raqibni topsa ko‘ra olmaslik tobora avj olishini tasvirlagan. Spark haqiqiy psixolog sifatida rashk va nafratni insonning asosiy zaif tomonlari deb e’tirof etadi.”*[3]

Sparkning ayol qahramonlari chuqur ruhiy, psixologik murakkablikka ega. Ular ichki ziddiyatlar, hissiy kurashlar, psixologik muammolar bilan yuzma-yuz keladi. Bu esa obrazlarning ichki dunyosi va insoniy jihatlarini yanada chuqurroq ochib beradi. Yozuvchi asarlarida ayol ruhiyatini tasvirlash uchun turli elementlardan foydalangan, ularning fikrlari, his-tuyg‘ulari va harakatlari orqali ruhiyatning turli jihatlarini ochib bergan. Bunda o‘ziga xoslik, xohish, istak, intiluvchanlik, qat’iyat kabi mavzular qamrab olingan. Ayol qahramonlarining ichki dunyosi, fikrlari, his-tuyg‘ularini kitobxonga yetkazib berish uchun dialogdan foydalangan. Ularning bir-biri bilan gaplashishi va munosabatlariga e’tibor qaratib, havotir, qo‘rquv, istaklar va motivlarini ifoda etgan. Bundan tashqari turli ramz, belgilar, masalan, ko‘zgu, qush yoki konkret jismlar yordamida ayollikka xos bo‘lgan ichki kurash, jamiyat talablari mujassamlashgan. Ba’zida Spark o‘quvchilarga ayol ruhiyati haqida turli xil qarashlarni taqdim etish uchun ishonchsiz hikoyachilardan yoki hikoya qilish nuqtai nazarini o‘zgartirgan. Ushbu uslub unga tajriba va idrokning sub’ektiv tabiatini o‘rganishga imkon yaratdi. Qahramonlarining tajribalari orqali u turli ijtimoiy kontekstlarda ayollar duch keladigan

qiyinchiliklar va cheklovlarni ta'kidladi. Yozuvchining badiiy uslubi ko'p holatda tanqidiy realizmga asoslanadi. Ayol qahramonlarning hayoti, tajribalari realistik tarzda tasvirlanib, shu orqali jamiyatdagi nohaqliklar, muammolar yoritiladi. Natijada ayol qahramonlarning kundalik hayoti va ijtimoiy muammolari ochib beriladi. Sparkning ayol qahramonlari gender tenglik, ijtimoiy masalalar bilan bog'liq ziddiyatlar, muammolar bilan to'qnashadi. Ularning feministik tajribalari, jamiyatdagi mavqei va vazifalari chuqur tadqiq etiladi. Bu masalalar orqali ayol qahramonlarning shaxsiyati va hissiyotlari yanada boyitiladi. Muallifning aksar ayol obrazlari o'zini yolg'iz va boshqa insonlardan ayri his qiladi. Bu esa ularni individualliklarini saqlab qolishga va hayotda o'rnini topishiga yordam beradi. Yolg'izlik, individuallik masalalari ayollarning ichki kurashlari zahirida shaxsiy sifatlarini ochib beradi. Aksar Sparkning uslubi tanqid va kinoyaga to'la. Ayol qahramonlarning o'zini tutishi, harakatlari, tajribalari kinoyaviy tarzda tasvirlanib, jamiyatning kliché va stereotiplari tanqid ostiga olinadi. Bu orqali ayol qahramonlarning obrazlari yanada chuqurroq va ko'p qirrali etib tasvirlanadi. Yozuvchining "The Comforters" romani bosh qahramoni Karolin Roz obrazi o'ziga xos, murakkab shaxs sifatida ifodalangan. Bu obraz orqali Spark ayol qahramonning turli jihatlarini ochib beradi, jumladan ayol o'zini anglash, shaxsiyatini kashf qilish jarayonidan o'tadi. U roman davomida o'ziga o'zi savollar beradi va hayotining ma'nosini topishga intiladi. Jarayonda Karolin o'zini tanqidiy tarzda baholaydi, individuallik tamoyillarini kashf etadi.

*Sparkning birinchi romani "Yupatuvchilar" da bosh qahramon Karolin Rouz o'zini hikoya qilayotgan va ba'zida uning har bir harakatini nazorat qiladigan muallif tomonidan ta'qib qilinadi. Karolin o'zini roman tuzog'ida topadi - bu roman Karolinning ta'kidlashicha, umumiy va oldindan tahmin qilsa bo'ladigan romandir [4].*

Ushbu asar postmodern uslubda yozilgan bo'lib, Karolin obrazi ham bu uslubni aks ettiradi. U o'z hayoti haqida yozayotganini biladi, shu bois hikoyaning bir qismi sifatida harakat qiladi. Bu metanarrativ usuli Karolinni boshqa qahramonlardan ajratib turadi, uning tasvirini boyitadi. Obraz ruhiy, psixologik jihatdan murakkabdir. U ovozlarni

eshitishi va o'z hayotini adabiy asar sifatida ko'rishi bilan ajralib turadi. Bu psixologik elementlar uning obrazini yanada chuqurroq va murakkabroq bo'lishiga xizmat qiladi, chunki u ruhiy holatini anglashga va boshqarishga urinadi. Muriel Sparkning tanqidiy realizmi Karolin obrazida ham yaqqol namoyon bo'ladi, uning hayoti va muammolari realistik tarzda tasvirlanib, jamiyatdagi nohaqliklar va stereotiplar tanqid qilinadi. Karolin Rouz mustaqil va o'z huquqlarini himoya qiluvchi ayol sifatida an'anaviy vazifalar va stereotiplarga qarshi turadi, hayot yo'lida o'rmini topishga intiladi. Feministik nuqtai nazardan bu obraz kuchli, mustaqil va o'ziga ishongan ayol sifatida ko'rsatiladi. Spark o'quvchilarni asarlarini his qilishdan ko'ra fikrlashga undaydi. Yuqoridagi asarda kitobxonlarning matnga bo'lgan munosabatlarini ichki xususiyatlarini ochib berish orqali boshqa ixlosmandlarini jalb etadi. U telbalik yoki yovuzlik kabi mavzularni yengillik bilan tasvirlaydi, "haqiqat" tushunchasining ildizini qayta qayta so'roqqa tutish orqali tarixiy voqelikni aks ettiradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati**

1. Y.Eshmatova. Istiqlol davri o'zbek qissachiligida ayol ruhiyatining badiiy talqini. PhD., Dissertatsiya. B – 4.
2. Ganesh. K.S.The Characters of Muriel Spark and their Universal Experiences. The Creative launcher, 2021, vol. 6, no. 5, <https://www.redalyc.org/articulo.oa?id=703873561012> [tashrif sa'nasi. 16.05.2024]
3. Poe-Slade, Tess, "The Generic Flamboyance of Muriel Spark" (2023). Honors Theses. -P.417. [https://ecommons.udayton.edu/uhp\\_theses/417](https://ecommons.udayton.edu/uhp_theses/417). [Tashrif sanasi. 20.05.2024]
4. Джалалдинова, М. З. "Reflection of Personality in the Early Works of Muriel Spark." Международный Журнал Искусство Слова 3.4 (2020). -P: 120-123
5. Djalaldinova, M. Z. Muriel Spark Badiiy Nutqining O'ziga Xos Xususiyatlari. Xalqaro Ilmiy-Amaliy Konferensiyalar 1.1 (2024): 203-205.